

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR KITOBXONLIGI VA BU BORASIDA ABDULLA QAHHORNING FIKRLARI**

Nuraliyeva Shirmonoy Ibragimovna

Farg'ona viloyati Quvosoy pedagogika kolleji o'qituvchisi

Odatda, bola olamga kelibdiki, onani taniydi, uning hidini, qadam tashlashini, nafas olishini darhol sezib oladi. Ona bir daqiqa o'zidan uzoqlashsa xarxasha qiladi, ingrab yig'laydi. Chunki bu norasida onaning qornida ekanligidayoq uni o'ziga kashf qilib olgan. Shu onaning ko'magida atrof-muhit bilan, o'zini qurshab olgan olam bilan tanishadi. Onaning allasi, qo'shig'i, ertagi murg'ak qalbida bir umrga muhrlanib qoladi. Folklor va yozma adabiyot namunalarini tinglab, voyaga yâtayotgan bolalarning o'yinlari, sho'xliklari, xayollari, qiziqishlari, gap-so'zlari — bular bolalarning ma'naviy dunyosini boyitadigan omillardandir. Agarda kattalar bu o'ziga xos bolalar dunyosini tushunib, uni to'g'ri baholay olsalar, bolalarning kâlajagi uchun katta ish qilgan bo'ladilar. Alla, ertak, topishmoq, maqollarda kuzatganimizdâk, odamlarga, jonivorlarga, tabiatga bo'lgan mâhr-muhabbat, do'stlik va o'rtoqlikning ilk tuyg'ulari, yaxshilikka nisbatan uyg'ongan dastlabki minnatdorchilik hissi, har narsaga chanqoqlik bilan qiziqib qarash kabilarning barchasi bolaning ma'-naviy dunyosini boyitishi, uning xayoli va tasavvurini kengaytirishi lozim. Biz, kattalar „Bolalik betashvishdir“, „Bolalik hayotdagi eng baxtiyor damdir“, „Bolalik inson umrining yorqin, bahoriy tongidir“ kabi gaplarni qayta-qayta gapirishni yaxshi ko'ramiz. Har bir kishi folklorda zikr etilganidek, eng baxtiyor va betashvish bolalik yillarida taxminan quyidagi qobiliyatlarni egallab olgan bo'lishi lozim. O'ynab va sho'xlik qila turib, u: nima yaxshi va nima yomonligini, narsalar dunyosini, hayvonot dunyosini, odamlar dunyosini anglab boradi. Buning ustiga dunyoni bilish shunchaki yuzaki bir kuzatuv emas: kecha u yomg'irning nimaligini bilmas edi, bugun esa u ertalab yomg'irni ko'rdi-yu, ayni paytda dunyoda tarnovlar bo'lishini, chumchuqlar sovuqda xurpayib, yum-yumaloq bo'lib olishini ham bilib oldi. Bu ertalabki kashfiyotlar edi, tushga borib esa, u mushukchani qo'rqitib yuborsa, yunglari xurpayib, ko'zlari yashil rangda chaqnaib ketishini ham birinchi bor ko'rdi.

Bolalar adabiyoti borasida Abdulla Qahhor quydagi fikrlarni bayon etgan uning fikrlari bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Darhaqiqat, bolalarning o'yinlariga, chizgan rasmlariga astoydil razm soling, gaplarini tinglang. Shunda siz ularning olamni naqadar yorqin, aqlga sig'mas darajada mo'jizakor bir tarzda ko'ra bilishlarini payqaysiz. Ular o'zlarining sezgirliklari tufayli, hatto qo'rqinchli ertaklardan ham qandaydir qiziq joylarini ilib oladilar, kundalik voq'alarning esa kattalar sezmay qoladigan muhim jihatlarini ko'ra biladilar. Mana shu musaffo tuyg'ulari uchun ham kishilar bolalikni sevadilar va uni butun umr mamnuniyat bilan xotirlab yuradilar. Bolalar adabiyotining hozirgi ahvoli to'g'risidagi dokladda ham, muzokaraga chiqqan o'rtoqlarning nutqida ham bir narsa ko'zga tashlanadi: hamma bolalar adabiyotidagi kamchiliklardan gapirishdan oldin bu adabiyot ancha o'sganligi, yutuqlarga ega bo'lganligi to'g'risida katta-kichik muqaddima qilib o'tdi. Bu gaplar haq, lekin bir narsani esdan chiqarmaslik kerak: modomiki, bolalar adabiyoti sovet adabiyotining bir qismi ekan, uning o'sishi, yutuqlarga ega bo'lishi tabiiy bir hol, gap bu yutuqlarning darajasi, bu kungi talablarga qanchalik javob bera olishi to'g'risida bo'lishi kerak. To'g'ri, bugungi bolalar adabiyotining salmog'i bundan o'n besh yil burungi bolalar adabiyotining salmog'idan ancha yuqori, lekin bugungi maktab yoshidagi bolalar bundan o'n besh yil burungi maktab yoshidagi bolalarga o'xshaydimi? Hozirgi maktab yoshidagi bolalar maktabga boshqa oilalardan, boshqacha oilalardan borayotipti, bu bolalar urush zamonini ko'rgan. Ma'lumki, urush faqat shaxar va qishloqlarni buzgani yo'q. Mana shu nuqtai nazardan qaraganda,

bolalar adabiyotining hozirgi darajasi, saviyasi juda yuksak bo'lishi kerak. Plenumda bolalar adabiyoti alohida masala qilib qo'yilganligi va soyuz rahbarlari bu masalani qo'yishda ayrim, pishiq tayyorgarlik ko'rganligiga sabab ham shu bo'lsa kerak. Chiroyli lof-qofdan xunuk haqiqat yaxshi: ancha o'sgan, yutuqlarga ega bo'lgan hozirgi bolalar adabiyotining darajasi, saviyasi uning oldida turgan talablar, vazifalar darajasidan xiylagina past. Adabiyotimizning hozirgi darajasini ko'zda tutganda, bu narsa juda bilinadi. Bunga eng birinchi sabab shuki, bolalar adabiyoti shu kungacha ham soyuzning, ham adabiyot jamoatchiligining diqqat markazidan chetda bo'lib keldi. Shukur Sa'dullaning ko'p asarlari juda xom, g'arib ekanligi to'g'risida yaqin o'n yildan beri gap yuradi, lekin uning bironta asari biron marta jiddiyoq muhokama qilingani yo'q. Agar bolalar adabiyoti soyuzimizning diqqat markazida bo'lganda, butun boshli yozuvchining ijodi uning e'tiboridan chetda qolmas edi. Bu hol, albatta, bolalar adabiyotining saviyasiga katta ta'sir qiladi. Hozirgi bolalar adabiyotining saviyasi past bo'lishiga ikkinchi sabab, bolalar uchun yozadigan yozuvchilarning umumiy saviyasi, malakasi pastligidan kelib chiqadi. Kecha va bugun so'zga chiqqan o'rtoqlar bu to'g'rida yetarli misollar ko'rsatishdi. Bolalar yozuvchilarining oldiga qattiq talablar qo'ymaganimiz uchun ko'pi «kosib» bo'lib qolyapti. Bulardan birmunchasi bolalar uchun yozish qanchalik mas'uliyatli ekanini, bu mas'uliyatni zimmasiga olgan odam qanchalik bilimli, qanchalik hunarmand bo'lishi kerak ekanini yaxshi bilmaydi, tushunmaydi. Bolalar adabiyotida kattalardan ko'ra bolalarga yozish oson degan aqidada yurgan «kosiblar» topiladi. Kattalar uchun yozilgan kitobda yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish mumkin, lekin bolalar uchun yozilgan kitobda ketgan xatoni tuzatib bo'lmaydi, bu xatodan bolani ogohlantirilsa, xato uning zehninga chuqurroq o'rnashadi. Dokladda, muzokaraga chiqqan o'rtoqlarning nutqida odam xijolat bo'ladigan misollar ko'rsatildi. Bularning ichida yozuvchining chalasavod ekanini ko'rsatadigan faktlar bor. Bu qandog' gapki, yozuvchi, bolalarning ikkinchi muallimi bo'lgan yozuvchi chalasavod, jumla tuzolmaydi! Yozuvchi bo'la turib o'zbek so'zlarining ma'nosini bilmaydi, so'zni o'z o'rnida ishlatmaydi! Hammadan yomonrog'i shuki, biz shularni payqamay kelayotibmiz, payqaganimizga e'tibor qilmayotibmiz. Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g'oyat usta san'atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo'lmog'i kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Топволдиев К. А. ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ //Составители. – 2021. – С. 66.
- 2.Топволдиев, К. А. "ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ." Составители (2021): 66.
3. Топволдиев, К. А. (2021). ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ. Составители, 66.
- 4.Топволдиев К. А. ОТРАЖЕНИЕ ОРИЕНТАЛИЗМА В ТЕКСТАХ ИА БУНИНА КАК СВОЕОБРАЗНОЕ ВОСПРИЯТИЕ ВОСТОКА //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
- 5.Топволдиев, Казбек Ахмадалиевич. "ОТРАЖЕНИЕ ОРИЕНТАЛИЗМА В ТЕКСТАХ ИА БУНИНА КАК СВОЕОБРАЗНОЕ ВОСПРИЯТИЕ ВОСТОКА." МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 4.4 (2021).
- 6.Топволдиев, К. А. (2021). ОТРАЖЕНИЕ ОРИЕНТАЛИЗМА В ТЕКСТАХ ИА БУНИНА КАК СВОЕОБРАЗНОЕ ВОСПРИЯТИЕ ВОСТОКА. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(4).
- 7.Topvoldiev K. USE OF ORIENTALISM IN LITERATURE AS RECEPTION OF IMITATION OF THE EASTERN WORLD //Конференции. – 2020.
- 8.Topvoldiev, Kazbek. "USE OF ORIENTALISM IN LITERATURE AS RECEPTION OF IMITATION OF THE EASTERN WORLD." Конференции. 2020.

- 9.Topvoldiev, K. (2020, December). USE OF ORIENTALISM IN LITERATURE AS RECEPTION OF IMITATION OF THE EASTERN WORLD. In Конференции.
- 10.TOPVOLDIEV K. Orientalism in Pushkin's cycle" Imitations of the Koran" //Scientific journal of the Fergana State University. – 2018. – Т. 1. – №. 4. – С. 62-65.
- 11.TOPVOLDIEV, K. "Orientalism in Pushkin's cycle" Imitations of the Koran". Scientific journal of the Fergana State University 1.4 (2018): 62-65.
- 12.TOPVOLDIEV, K. (2018). Orientalism in Pushkin's cycle" Imitations of the Koran". Scientific journal of the Fergana State University, 1(4), 62-65.
- 13.Джалолова М. А., Мамажоновна Ш. К. O' SMIRLAR XULQIDA NOMOYISHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI: Djalolova Mohinur Abdusattor qizi, Mamajonova Shohista Kamolovna, Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrası o'qituvchilari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6. – С. 287-292.
- 14.Джалолова, Мохинур Абдусатторовна, and Шохиста Камоловна Мамажоновна. "O' SMIRLAR XULQIDA NOMOYISHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI: Djalolova 15.Mohinur Abdusattor qizi, Mamajonova Shohista Kamolovna, Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrası o'qituvchilari." Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 6 (2022): 287-292.
- 16.Джалолова, М. А., & Мамажоновна, Ш. К. (2022). O' SMIRLAR XULQIDA NOMOYISHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI: Djalolova Mohinur Abdusattor qizi,
- 17.Мамажоновна Шохиста Камоловна, Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrası o'qituvchilari. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 287-292.
- 18.Djalolova M., Karimov J. PSYCHOLOGICAL HEALTH AND ITS FUNDAMENTALS //Conference Zone. – 2021. – С. 195-197.
- 19.Djalolova, M., and J. Karimov. "PSYCHOLOGICAL HEALTH AND ITS FUNDAMENTALS." Conference Zone. 2021.
- 20.Djalolova, M., & Karimov, J. (2021, December). PSYCHOLOGICAL HEALTH AND ITS FUNDAMENTALS. In Conference Zone (pp. 195-197).
- 21.Djalolova M., Nizomjon o'g'li Q. H. IJODIY QOBILIYAT MUAMMOSINING JAHON PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O 'RGANILISHI //Conference Zone. – 2022. – С. 429-438.
- 22.Djalolova, Mohinur, and Qodirov Hasanboy Nizomjon o'g'li. "IJODIY QOBILIYAT MUAMMOSINING JAHON PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O 'RGANILISHI." Conference Zone. 2022.
- 23.Djalolova, M., & Nizomjon o'g'li, Q. H. (2022, December). IJODIY QOBILIYAT MUAMMOSINING JAHON PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O 'RGANILISHI. In Conference Zone (pp. 429-438).